



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 336 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
<i>Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich</i>	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
<i>Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi</i>	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
<i>Muxitdinova Nigora Mexriddinovna</i>	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
<i>Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li</i>	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
<i>Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova</i>	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
<i>Azerbayeva Elmira Muratbayevna</i>	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
<i>Niyazova Bibiniso Boltayevna</i>	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
<i>Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruktsiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
<i>Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	264
<i>Axrorov Xurshid Xamidovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	271
<i>G'ofurova Mohidil Sayfutdin qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarning geoinformatsion kompetentligini rivojlantirish muammosi tahlili	275
<i>Berdiyev Dilshod Faxriddin o'g'li</i>	
Академия Маъмуна: силиконовая долина средневековья.....	279
<i>Аъзамова Диёра Дильшодовна</i>	
Biblioterapiya vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga ijobiy munosabatni shakllantirish yo'llari va vositalari.....	286
<i>Komolova Shoxsanam Muzaffar qizi</i>	
Ixtisoslik fanlarini o'qitishda raqamli modellashtirish vositalarini didaktik moslashtirish: integrativ ta'lim platformasi misolida.....	291
<i>Usarov Jabbor Eshbekovich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish – pedagogik muammo sifatida.....	297
<i>Umarova Gulhayo Murodiljon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	301
<i>Salayjonova Saodatjon Maxsudbek qizi, Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv va zamonaviy o'qitish strategiyalarining nazariy-amaliy asoslari	305
<i>G'ulomjonova Mohinur Ulug'bek qizi</i>	
Формирование профессиональных компетенций педагога будущего в условиях цифровой трансформации и внедрения технологий искусственного интеллекта.....	309
<i>Sodikova Diloromkhon Botirjon qizi</i>	
Geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish hamda uning samaradorligini statistik baholash.....	313
<i>Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna</i>	



Jadidlar tomonidan darslik va o'quv qo'llanmalarining nashr etilishi	319
Aslonov Madamin Mansurovich	
Chust va Samarqandda ekoturizm rivojlanishida milliy hunarmandchilikning o'rni va ahamiyati	324
Allanov Shuxrat Qilichovich	
Maktab direktor o'rinbosarlarining aksiologik kompetensiyasini diagnostika qilish mezonlari	329
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	



GEOGRAFIYA DARSLARIDA MILLIY MEROS VA QADRIYATLARNI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING SAMARADORLIGINI STATISTIK BAHOLASH

Xabibullayeva Muxabbatxon Nu'monjonovna

Andijon davlat universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablari geografiya darslarida o'quvchilarga milliy meros, tarixiy qadriyatlar va allomalarimizning ilmiy merosini o'rgatish metodikasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida AKT vositalari ("MY Test" va "iSpring" dasturlari) hamda innovatsion pedagogik usullarning o'quv jarayoniga ta'siri 12 ta maktabning 798 nafar o'quvchisi ishtirokidagi pedagogik eksperiment orqali o'rganildi. Eksperiment natijalari Styudent va Pirson matematik-statistik mezonlari yordamida tahlil qilinib, taklif etilgan metodika an'anaviy dars usullariga qaraganda o'qitish samaradorligini oshirganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: geografiya ta'limi, milliy meros, tarixiy qadriyatlar, allomalar merosi, pedagogik eksperiment, Styudent mezon, Pirson testi, o'qitish samaradorligi, aksiologik yondashuv.

Abstract: This article examines the improvement of teaching methods for national heritage, historical values, and the scientific legacy of great scholars in geography lessons at general secondary schools. Within the framework of the study, the impact of information and communication technology (ICT) tools ("MY Test" and "iSpring" software) and innovative pedagogical methods on the educational process was investigated through a pedagogical experiment involving 798 students from 12 general secondary schools. The experimental results were analyzed using Student's t-test and Pearson's statistical criteria, revealing that the proposed methodology significantly improves teaching effectiveness compared with traditional instructional methods.

Key words: geography education, national heritage, historical values, heritage of great scholars, pedagogical experiment, Student's t-test, Pearson's test, teaching effectiveness, axiological approach.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы совершенствования методики преподавания национального наследия, исторических ценностей и научного наследия выдающихся мыслителей на уроках географии в общеобразовательных школах. В рамках исследования влияние средств информационно-коммуникационных технологий (программы "MY Test" и "iSpring") и инновационных педагогических методов на учебный процесс было изучено посредством педагогического эксперимента с участием 798 учащихся из 12 общеобразовательных школ. Результаты эксперимента были проанализированы с использованием математико-статистических критериев Стьюдента и Пирсона, что позволило установить, что предложенная методика повышает эффективность обучения по сравнению с традиционными методами преподавания.

Ключевые слова: географическое образование, национальное наследие, исторические ценности, наследие выдающихся мыслителей, педагогический эксперимент, критерий Стьюдента, критерий Пирсона, эффективность обучения, аксиологический подход.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va madaniy integratsiyalashuv sharoitida yosh avlod tarbiyasida milliy o'zlikni anglash, tarixiy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish davlat miqyosidagi strategik vazifalardan biriga aylandi. Axborot oqimining jadallashuvi hamda virtual makonning o'smirlar dunyoqarashiga ta'siri kuchaygan bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat intellektual va kognitiv salohiyatini oshirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy va aksiologik (qadriyatga oid) orientatsiyasini mustahkamlovchi tizimli metodologiyani yaratish talab etiladi.



Pedagogik va geografik ta'limning uzviyligi bu borada ulkan salohiyatga ega. Geografiya fani o'quvchilarga nafaqat Yer sayyorasining tabiiy-iqtisodiy manzarasi, tabiiy resurslar va demografik jarayonlarni o'rgatadi, balki aniq hududiy va makoniy birliklar doirasida shakllangan milliy merosni, tarixiy obidalar hamda madaniy qadriyatlarni chuqur anglash imkonini beradi. O'rta Osiyo hududining boy tabiati, uning o'tmishdagi allomalari tomonidan o'rganilishi va bu merosning umuminsoniy sivilizatsiyaga qo'shgan hissasi geografiya darslarining mazmunini mohiyatini ma'naviy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining geografiya darslarida milliy meros obyektlarini, madaniy qadriyatlarni va buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosini o'rgatishda bir qator uslubiy muammolar ko'zga tashlanmoqda. Mavjud darslik va o'quv dasturlarida ushbu ma'lumotlar ko'pincha quruq faktologik material shaklida, dars mazmuniga to'liq integratsiya qilinmasdan taqdim etiladi. Natijada o'quvchilarda madaniy obidalar va allomalar merosiga nisbatan faqatgina yodlashga asoslangan yondashuv shakllanib, ularning hissiy-qiymatli (aksiologik) munosabati, vatanparvarlik hissi va darsga bo'lgan qiziqishi past darajada qolib ketmoqda.

An'anaviy dars o'tish metodlarining bir xilligi, darslarda interaktiv media-texnologiyalardan hamda zamonaviy AKT imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmaslik o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelmoqda. O'quvchilarning milliy merosga oid bilim darajasini monitoring qilish va baholash tizimi ham ko'p hollarda an'anaviy so'rovlar bilan cheklanib qolgan bo'lib, bu jarayonda raqamli test platformalari kam qo'llaniladi.

Geografiya darslarida o'quvchilarning vatanparvarlik va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish hamda pedagogik jarayonni raqamlashtirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Madaniy meros obyektlarini geografik nuqtai nazardan tahlil qilish va ta'lim jarayoniga kiritish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, aynan umumta'lim maktablarining 7–8-sinf o'quvchilarida milliy meros va qadriyatlarni geografiya darslari doirasida integratsiyalashgan o'qitish tizimi, "MY Test" va "iSpring" dasturlaridan foydalanish orqali uning sifat darajasini matematik-statistik usullar (Styudent va Pirson mezonlari) bilan baholash masalasi monografik va metodik jihatdan yaxlit tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa ushbu tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi – umumta'lim maktablarida o'quvchilarga milliy meros, tarixiy qadriyatlar va allomalarimizning ilmiy merosini o'rgatish samaradorligini oshirish maqsadida geografiya darslarini o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda taklif etilayotgan uslubiy loyihaning natijaviyligini matematik-statistik modellar yordamida isbotlashdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi aniq vazifalarni hal etish lozim deb topildi:

1. Geografiya darslarida "O'rta osiyolik allomalarning geografik bilimlarga qo'shgan hissalarini" (7-sinf) hamda "Madaniy meros va tarixiy obyektlar, milliy urf-odat va qadriyatlarimizni o'rganish" (8-sinf) mavzularini o'qitishning integratsiyalashgan metodik tizimi va didaktik ishlanmalarini yaratish.
2. Darslarda o'quvchilarning faolligini oshirish va bilish darajasini monitoring qilish uchun "MY Test" va "iSpring" dasturlari asosida test tizimlari hamda innovatsion metodik loyihalarni dars jarayoniga joriy etish.
3. Tashkil etilgan pedagogik eksperiment asosida tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlarini shakllantirish hamda olingan natijalarning ishonchlilik darajasini zamonaviy matematik-statistik tahlil metodlari yordamida baholash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Geografiya ta'limining metodologik asoslarini rivojlantirish, o'quv jarayoniga yangi didaktik materiallar hamda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, shuningdek, dars o'tish jarayonida tarixiy qadriyatlarni integratsiyalash masalalari uzoq yillardan buyon soha olimlarining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda uchta asosiy guruhga ajratib tahlil qilish mumkin.

Geografiya ta'limining umumiy qonuniyatlari, undagi vizual va xaritalar bilan ishlash metodikasining pedagogik asoslari xorijlik olimlardan N.N. Baranskiy, A.V. Darinskiy, V.A. Juchkevich hamda V.P. Maksakovskiy kabi tadqiqotchilarning asarlarida tizimli o'rganilgan. Mazkur olimlarning ishlarida makoniy tasavvurni shakllantirishda geografik obyektlarning vizual modellaridan foydalanish birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Respublikamizda geografiya o'qitish metodologiyasining nazariy asoslari H. Vahobov, N.R. Alimqulov, O. Mo'minov, R. Qurboniyozov va N.B. Sultanova kabi mahalliy metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning tadqiqotlarida geografiya darslarining samaradorligini oshirishda tabiat va xo'jalik obyektlariga oid natural hamda tasviriy ko'rgazmali qurollardan tizimli foydalanish zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Biroq ushbu klassik metodik ishlarda globallashtirish va ta'limni raqamlashtirish davri talablaridan kelib chiqib, milliy qadriyatlar mavzusini AKT dasturlari yordamida interaktiv shaklda baholash mexanizmlari to'liq qamrab olinmagan.



Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni integratsiya qilish. Zamonaviy sharoitda o'quvchilar faolligini oshirish va bilish faoliyatini monitoring qilishda AKT imkoniyatlaridan foydalanish muhim ilmiy-pedagogik yo'nalishga aylandi. S. Ibroimov va M. Madaminova kabi tadqiqotchilar maktablarda geografiya darslarining jozibadorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va interaktiv multimediali vositalarning rolini alohida ta'kidlaydilar.

Jahon tajribasida ta'lim oluvchilar bilimini diagnostika qilish uchun interaktiv test platformalari (masalan, "iSpring", "My Test" dasturlari) o'quv motivatsiyasini shakllantiruvchi va mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiruvchi eng qulay raqamli vosita sifatida e'tirof etiladi. Ushbu dasturlar orqali har bir dars yakunida o'quvchilarning o'zlashtirish dinamikasini tezkor vizuallashtirish va xatoliklar ustida ishlash imkoniyati oshadi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo hududida tabiiy va aniq fanlar, xususan, geografiya va kartografiyaning rivojlanishi bevosita Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk qomusiy allomalarning ilmiy faoliyati bilan bog'liqdir. Al-Xorazmiyning "Yer surati" (Kitab surat al-Ard) asari hamda Beruniyning astronomik va geodezik o'lchovlari jahon geografiya ilmining tamal toshi hisoblanadi.

Pedagog olimlarning ta'kidlashicha, geografiya darslarida bunday milliy meros namunalarini va mahalliy darajadagi madaniy-tarixiy obidalarini o'rganish o'quvchilarda ijtimoiy-madaniy muhit normalarini tezroq o'zlashtirish hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish imkonini beradi. Chunki inson madaniy ta'sir obyekti sifatida geografik hududning qadriyatlari va an'analari vositasida shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, pedagogik eksperiment, qiyosiy tahlil hamda olingan natijalarning ishonchligini baholash uchun matematik-statistik modellash usullaridan foydalanildi. Eksperiment jarayonida taklif etilgan yangi metodikaning amaldagi an'anaviy dars berish tizimiga qaraganda samaradorlik darajasini aniqlash asosiy mezon qilib belgilandi.

Tadqiqot qamrovi, obyekti va respondentlar tarkibi

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2020–2023-yillar davomida Farg'ona vodiysining uchta viloyatidagi (Andijon, Farg'ona va Namangan) jami 12 ta umumta'lim maktabida 798 nafar o'quvchidan olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7- va 8-sinf geografiya darslarida milliy meros va qadriyatlarni o'rgatish jarayoni tanlab olindi.

Eksperiment ishonchligini ta'minlash maqsadida o'quvchilar tarkibi, ijtimoiy kelib chiqishi va o'quv sharoitlari jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita guruhga ajratildi:

- **Tajriba guruhi (403 nafar o'quvchi):** Mazkur guruhda darslar loyihalashtirilgan yangi integratsiyalashgan metodik dastur va interaktiv raqamli vositalar asosida o'tildi.
 - **Nazorat guruhi (395 nafar o'quvchi):** Mazkur guruhda o'quv mashg'ulotlari amaldagi o'quv dasturlari va an'anaviy metodlar asosida olib borildi.
1. **7-sinf "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursi doirasida:** "O'rta osiyolik allomalarning geografik bilimlarga qo'shgan hissalarini" mavzulari chuqurlashtirilgan tarzda o'qitildi. Bunda Muhammad al-Xorazmiyning "Yer surati" asaridagi koordinatalar tizimi, Abu Rayhon Beruniyning globus yaratish va Yer radiusini o'lchashga doir asarlari hamda Ahmad al-Farg'oniyaning astronomik-geografik hisob-kitoblari vizual va xaritalar tizimi orqali dars mazmuniga integratsiya qilindi.
 2. **8-sinf "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursi doirasida:** Respublika hududidagi madaniy meros, tarixiy obyektlar, muqaddas qadamjolar, milliy urf-odat va an'analarning geografik va ekologik jihatlari bog'lab o'rganildi. O'quvchilarda tabiat va milliy me'morchilik obidalarining uyg'unligi haqida aksiologik dunyoqarash shakllantirildi.

Dars jarayonini loyihalashtirishda interaktiv didaktik materiallar, multimediali taqdimotlar hamda muammoli vaziyatlarni yaratish usullaridan foydalanildi.

Raqamli monitoring va diagnostika tizimi. O'quvchilarning dars davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida baholash va nazorat qilish maqsadida zamonaviy AKT dasturlaridan foydalanildi. Jumladan:

- **"MY Test" dasturi:** Har bir mavzu oxirida o'quvchilarning faktologik bilimlarini (allomalarning asarlari, tarixiy obidalarining geografik koordinatalari va joylashuvi) nazorat qiluvchi qisqa va tezkor nostandart test topshiriqlarini tuzishda qo'llanildi.
- **"iSpring Suite" platformasi:** Mavzularning amaliy ahamiyatini ko'rsatish va o'quvchilarni interaktiv muammoli vaziyatlarga jalb qilish maqsadida dialogli trenajyorlar hamda multimediali o'quv modullari ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini darsning o'zida mustaqil ravishda baholash imkoniyatiga ega bo'ldilar.




Matematik-statistik baholash mezonlari. Tajriba va nazorat guruhlarida olingan yakuniy natijalarning statistik jihatdan ahamiyatligini tekshirish maqsadida quyidagi mezon va ko'rsatkichlar hisoblandi:

1. **Guruhlarning o'rtacha qiymatlari** ($\bar{X}_s$ va $\bar{X}_n$): O'quvchilarning yakuniy nazorat ishidan olgan baholarining o'rtacha arifmetik qiymati hamda o'zlashtirish foizlari hisoblandi.
2. **Dispersiya** (D) va **o'rtacha kvadratik og'ish** (σ): Baholarning o'rtacha qiymat atrofida tarqalish darajasi va bir jinsliligini aniqlash uchun foydalanildi.
3. **Student** (t -test) **mezoni**: Tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha ko'rsatkichlari orasidagi farqning tasodifiy emasligini va uslubiy yangilikning samaradorligini isbotlash uchun qo'llanildi.
4. **Pirson** (χ^2 – “xi-kvadrat”) **muvofiglik mezoni**: Ikki guruhdagi baholar taqsimotining bir-biridan qonuniyatli ravishda farqlanishini tekshirish uchun qo'llanildi.

Mazkur statistik tahlillar eksperiment oxirida olingan yakuniy natijalarning tasodifiy omillar ta'sirida emas, balki aynan taklif etilgan dars o'tish metodikasi samarasi o'laroq yuzaga kelganini ilmiy asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tajriba-sinov ishlari yakunida olingan yakuniy baholash ko'rsatkichlari taklif etilayotgan integratsiyalashgan dars o'tish metodikasining an'anaviy tizimga qaraganda sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi. O'quvchilarning yakuniy bilim darajalari va ularning guruhlar bo'yicha taqsimoti quyidagi gistogram-mada o'z aksini topgan(1-rasm).



1-rasm: Tajriba va nazorat guruhlari o'quvchilarining yakuniy o'zlashtirish ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili

Guruhlar kesimida o'quvchilarning erishgan natijalari tahlili quyidagicha shakllandi. Miqdoriy va foizli ko'rsatkichlar qiyosi.

- Tajriba guruhida 403 nafar o'quvchi: o'quvchilarning 32 foizi yoki 129 nafari a'lo, 39 foizi yoki 157 nafari yaxshi, 19,1 foizi yoki 77 nafari qoniqarli va atigi 9,9 foizi yoki 40 nafari qoniqarsiz baho oldi.
- Nazorat guruhida esa 395 nafar o'quvchi: a'lo baho olganlar atigi 8,9 foizni yoki 35 nafarni, yaxshi baho olganlar 26,1 foizni yoki 103 nafarni, asosiy ko'pchilikni tashkil etgan qoniqarli baholanganlar 48,1 foizni yoki 190 nafarni hamda qoniqarsiz baho olganlar 16,9 foizni yoki 67 nafarni tashkil qildi.

Diagrammada aks etganidek, an'anaviy dars o'tilgan guruhlarda o'quvchilar asosan qoniqarli (190 nafar) baholar atrofida to'plangan bo'lsa, AKT integratsiyalashgan darslarda o'quvchilarning kognitiv va aksiologik faolligi ortishi evaziga asosiy ko'rsatkichlar yaxshi (157 nafar) va a'lo (129 nafar) baholar tomonga siljigan. Bu o'quvchilarning darslarda milliy qadriyatlar va geografik obyektlarni faqat yodlash orqali emas, balki interaktiv tarzda anglaganidan dalolat beradi (1-jadval).



1-jadval: Milliy meros va qadriyatlarining geografiya darslarida o'qitilishi bo'yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko'rsatkichlari

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$S_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
3,93	3,27	0,9051	0,3971	1,20	0,97	11,58	796	119,67	0,09	0,06

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum $\bar{X} = 3,93$; $\bar{Y} = 3,27$; $\Delta_x = 0,09$; $\Delta_y = 0,06$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{o'sb} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{3,93 - 0,09}{3,27 + 0,06} = \frac{3,84}{3,33} \approx 1,15 > 1;$$

Bilish darajasini ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{bdb} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (3,93 - 0,09) - (3,27 - 0,06) = 3,84 - 3,21 = 0,63 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligini va bilish darajasini baholash mezoni esa noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, milliy meros va qadriyatlarining geografiya darslarida o'qitilishi bo'yicha tajriba guruhlaridagi o'zlashtirish nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Yuqoridagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadqiqot natijalari bo'yicha o'tkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan xulosalar tajriba-sinov ishlari samarador (13,2% ga) ekanligini va bizning ko'zlagan maqsadimiz tasdiqlanganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumta'lim maktablarining geografiya darslarida milliy meros, tarixiy qadriyatlar va allomalarimizning ilmiy merosini zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida integratsiyalashgan holda o'rgatish metodikasini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

Metodik tizimning samaradorligi: Geografiya ta'limi mazmuniga milliy-ma'naviy qadriyatlar hamda buyuk mutafakkirlarning (Al-Xorazmiy, Beruniy, Al-Farg'oniy) ilmiy merosini tizimli integratsiya qilish o'quvchilarning aksiologik dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, ularning fanga bo'lgan qiziqishini va mustaqil fikrlash qobiliyatini tubdan oshirdi. An'anaviy yodlashga asoslangan yondashuv o'rnini hududiy-tarixiy tahlil qilish ko'nikmasi egalladi.

Raqamli texnologiyalarning o'zni: "MY Test" va "iSpring" dasturlarining dars jarayoniga monitoring va diagnostika vositasi sifatida tatbiq etilishi o'quvchilar bilimni real vaqt rejimida baholash, xatolar ustida tezkor ishlash hamda o'quv motivatsiyasini barqaror saqlash imkonini yaratdi. Bu esa ta'lim sifatini boshqarishning raqamli mexanizmlari naqadar muhimligini isbotladi.

Statistik ishonchlilik: 12 ta umumta'lim maktabining 798 nafar o'quvchisi ishtirokida o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari matematik-statistik mezonlar yordamida har tomonlama tasdiqlandi. Student ($t = 11.58 > 1.96$) va Pearson ($\chi^2 = 119.67 > 7.82$) mezonlarining kritik qiymatlardan sezilarli darajada yuqoriligi olingan natijalarning tasodifiy omillar emas, balki aynan taklif etilgan yangi metodikaning qonuniy samarasi ekanligini tasdiqlaydi.

Ushbu tadqiqot doirasida sinovdan o'tkazilgan integratsiyalashgan metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari va raqamli baholash vositalaridan umumta'lim maktablarining nafaqat geografiya, balki boshqa turdosh ijtimoiy-gumanitar fanlari darslarida ham keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimqulov, N. R., & Sultanova, N. B. (2021). Geografiya ta'limida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi. *Pedagogika*, (3), 45–51.
2. Halstead, J. M. (2021). Values and values education in school geography. *International Research in Geographical and Environmental Education*, 30(3), 194–209.
3. Ibroimov, S., & Madaminova, M. (2022). Geografiya darslarida zamonaviy AKT dasturlaridan foydalanish samaradorligi. *O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари*, 2(1/1), 112–115.
4. Karimov, U., & Abdullaeva, M. (2024). The role of ICT in enhancing pedagogical efficiency in Central Asian schools. *Education and Information Technologies*, 29(4), 4511–4528.
5. Khamidov, O. A. (2023). Integration of interactive test platforms in checking student knowledge in secondary schools. *International Journal of Pedagogics*, 3(05), 18–24. <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue05-04>.



6. Mo'minov, O. (2020). Geografiya darslarida ko'rgazmalilik va interaktiv xaritalar bilan ishlash metodikasi. Ta'lim texnologiyalari, (2), 54–60.
7. Raxmonov, Sh. A. (2025). Pedagogik tadqiqotlarda statistik tahlil va eksperiment natijalarini baholash. O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar, (14), 201–208.
8. Safarov, I. B. (2024). Teaching cultural and historical heritage through geographic information systems and digital tools. Journal of Geography in Higher Education, 48(2), 201–215.
9. Bahadirovich, R. B. (2026). Emotional Capital Loss and Educational Vulnerability in Transnational Families. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 51, 106–112.
10. Taylor, L., & Roberts, M. (2025). Connecting heritage, landscape, and identity in geographical education. Geography, 110(1), 15–27.
11. Toshmatov, Z. K. (2023). O'rta osiyolik mutafakkirlarning geografik qarashlarini maktab geografiya kurslarida o'qitish tizimi. Sharqshunoslik, (4), 88–94.
12. Vahobov, H., & Qurbonniyozov, R. (2020). Umumta'lim maktablarida geografiya o'qitishning dolzarb muammolari va innovatsion yechimlari. Geografiya va ekologiya tahlili, 1(2), 12–19.
13. Yusupov, M. S. (2022). Tarixiy obidalar va madaniy merosni o'rganishning o'quvchilar vatanparvarlik tarbiyasidagi roli. Xalq ta'limi, (5), 12–17.
14. Иванова, Е. В. (2022). Применение математико-статистических методов в педагогических исследованиях: критерии Стьюдента и Пирсона. Просвещение.
15. Петров, А. С., & Сидоров, П. И. (2021). Использование платформы iSpring Suite для создания интерактивных учебных материалов по географии. Информатика и образование, (6), 34–41.
16. Смирнов, Д. А. (2023). Применение критерия согласия Пирсона при оценке качества знаний учащихся. Педагогические измерения, (2), 44–51.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.